



## OLIGOFRENOPELAGOGIKA FANI VA YORDAMCHI MAKTABLAR TIZIMI

Odiljonova Sarvinoz O'tkir qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Oligofrenopedagogika fani aqli zaif bolalarning tarbiyasi va ta'limi bilan shug'illanib defektologiyaning bir qismi hisoblanadi. U umumiy pedagogikaning maqsad va tamoyillariga tayangan holda o'zini ishlab chiqadi. Ta'limga oid to'g'ri materiallarni to'plash, mehnat tayyorgarligini aniqlash, aqli zaif bolalarni jismoniy tomondan rivojlantirish korreksiya mazmunini kasb erishi kerak bo'ladi. Oligofrenopedagogika fanining dastlabki davri aqli zaiflikni aniqlash bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** oligofrenopedagogika, umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, oligofreniya klinikasi, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, genetika, fiziologiya, maktabgacha oligofrenopedagogika, korreksion pedagogika, gen, xromosoma, aqliy qoloqlik.

### *Oligofrenopedagogikaning mohiyati.*

Aqli zaif bolalarning ta'lim-tarbiya sohasidagi muammolarini ushbu fan yechadi. Aqli zaif bola deyilganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish jarayoning pasayishi tushuniladi. Ular bilan ishlash qator fanlar yutuqlariga asoslanadi. Oligofrenopedagogika umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, oligofreniya klinikasi, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, genetika, fiziologiya va boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan keng foydalanadi.

Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'illanish boshlanganiga 200 yildan oshgan bo'lishiga qaramay, bu tizimdagi to'liq ma'lumotlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Kuzatuv ishlarining uzoq muddatligi va faktlarning sekinlik bilan yig'ilganligi oligofrenopedagogika fanining tarixini qisqartirgan. XIX asrda jamiyatda yuzaga kelgan o'zgarishlarning oqibatida nuqsoni bor bolalarga nisbatan e'tibor kuchaydi va ularning kasalliklarini aniqlash, diagnostika qilish, tasniflashga oid materiallar matbuotda e'lon qilina boshladi. Bu yo'nalish tarafdorlari shaxs shakllanishida irsiy omillarga e'tibor qaratishlariga qaramasdan, nuqsonlilar ta'lim-tarbiyasida pedagogika bilan tibbiyotni birlashtirgan holda o'rganishga katta e'tibor berishgan va bu yo'nalishda o'z hissalarini qo'shganlar.

### *Oligofrenopedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.*

Oligofrenopedagogika fani inson haqidagi fanlarning taraqqiyoti bilan, ayniqsa, pedagogika bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning maqsadlari va vazifalari ham birdir. Bundan tashqari, oligofrenopedagogika yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan ham bog'langandir. Ta'lim-tarbiya masalarini hal qilishda o'qituvchi ushbu fanlarga oid ko'pgina bilimlarga ega bo'lishi kerak. Oligofrenopedagogika fani ta'limning boshqa uslubiyatlari (yordamchi maktablarda o'qitiladigan barcha fanlar uslubiyati) bilan ham bog'liqdir. Predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirishni o'qituvchi o'z zimmasiga olishi zarur. Yuqori sinflarda bu bog'lanish qiyinlashadi, chunki har qaysi predmetni ma'lum bir o'qituvchi olib boradi, buning ustiga predmet o'qituvchilarining ishlashida yaqindan aloqa bo'lmasa predmetlararo bog'lanishni amalga oshirish yanayam qiyinlashadi.



### *Yordamchi maktablarda tarbiya tamoyillarining qo'llanilishi.*

Yordamchi maktablardagi tarbiya tamoyillari butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalaniladigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga tarbiyaning mazmuni, usullari va tashkil etish shakllari kiradi. Hamma maktablarda tarbiya tamoyillari bir xil ko'rinishga ega. Ammo, yordamchi maktablarda aqli zaif bolalarning psixologik, jismoniy va hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos yondashuvlardan ham foydalaniladi. Yordamchi maktablarda hayot va amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili yetakchilik qiladi. Buning mohiyatini tarbiyaga jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarini, voqelikning qadriyatlarini, axloqi va estetikasini tatbiq etishdan iborat. Yordamchi maktabda o'quvchilarni qaysidir sohaga ixtisoslashgan mehnat va kasbni tanlashi o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan chuqur anglab olinishi lozim.

Yordamchi maktab tizimida bolani jamoada jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash tamoyili ham o'ziga xos o'ringa ega. Bu tamoyil tarbiya tizimining jamiyat talablaridan kelib chiqadigan tamoyillaridan biri bo'lib, uning tabiati ishlab chiqarish vositalariga munosabat, hamkorlik va yordam munosabatlari bilan xarakterlanadi.

Yordamchi maktab o'quvchilari bilan amaliy ishlashda tarbiya usullaridan foydalanish ko'nikmalari, malakalarini o'rganish va hosil qilish qulay bo'lish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga birlashtirish mumkin. Yordamchi maktab o'quvchilari ongini shakllantirish usullari, jamoatchilik xulq-atvorini shakllantirish yo'llari, rag'batlantirish usullari va o'z-o'zini tarbiyalash usullari ham qo'llaniladi.

1895-yilda Kiyevda chiqarilgan Yeremenkning "Oligofrenopedagogika" o'quv qo'llanmasida tarbiya usullari uchta: mashq qildirish, ishontirish va rag'batlantirishdan iborat, deyilgan.

### *Yordamchi maktablarda axloqiy tarbiya.*

Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan yosh avlodda jamiyatdagi xulq-atvor qoidalariga mos keladigan sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Barcha tarbiya vositalari aqli zaif bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Axloqiy tarbiya masalasiga keladigan bo'lsak, uning mohiyati alohida shaxs uchun emas, balki butun jamiyatning kelajagi uchun ham muhimdir. Chunki axloqiy tarbiyalangan shaxslarsiz yordamida buyuk kelajakni qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya boshqa tarbiya turlaridan ahamiyati bilangina ajralib qolmasdan, murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Shu o'rinda fransuz pedagogi, shifokori Eduard Segenning: "Aqli zaif bola aqlan bilmaydi, jismonan bajara olmaydi va ruhan xohlamaydi. Aqli zaif bola aqlan bila olardi, jismonan bajara olardi, agar u xohlasa. Barcha balo shundaki, dastlab u xohlamaydi.", degan fikrlari e'tiborga loyiqdir. Demak aqli zaif bolalar biror ish, topshiriq qilishni xohlamas ekanlar. Umumiy psixologiya, maxsus psixologiyadan ma'lumki, agar inson biror ishni qilishni xohlamasa, bu jarayon juda murakkab kechadi. Axloqiy tarbiyani shakllantirish usullari, axloqiy tarbiya tamoyillariga oid fikrlar mutafakkirlar e'tiborini ham tortgan. Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida risola" asarida: "Yaxshi xulq va aql kuchi birgalikdagina insoniy yutuqdir... Barcha go'zal va jirkanch axloqiy sifatlar hayot davomida shakllanadi", - deydi. Tibbiyot asoschisi Abu Ali ibn Sino o'z qarashlarida ta'lim-tarbiyada bolalarning qobiliyat va imkoniyatlariga



alohida e'tibor berish kerakligi, inson ongli mavjudot ekanligi bilan hayvondan farqlanishini aytib o'tgan.

Axloqiy tarbiya shaxsning barkamol bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga egaligi muhimdir. Shu sababli pedagogikada axloq masalasiga katta ahamiyat beriladi. Axloqiy tarbiya qanday xatti-harakat qilish kerakligi to'g'risida gapirib qolmay, balki nima uchun aynan shunday harakat qilish kerakligi haqida ham tushuntirib o'tadi.

Nuqsonli bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun quyidagi tamoyillar alohida ahamiyatga ega:

✚ Ma'lum toifadagi nuqsonli bolalarga tegishli individual va umumiy xususiyatlarni o'rganish maqsadida ularni yaxshilab o'rganish. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil qilish.

✚ Nuqsonli bolalarning kuchli qobiliyatlarini aniqlagan holda shunga muvofiq ish ko'rish.

✚ Pedagogik jarayonning bolalardagi nuqsonlarni to'g'rilash va ularning o'rnini to'ldirishga qaratilishi. Asosiy e'tiborni ikkilamchi nuqsonlarga qaratilishi.

✚ Bolalarga individual tarzda e'tibor qaratish.

### *Maktabgacha oligofrenopedagogika fani.*

Maktabgacha tarbiya oligofrenopedagogika fanining predmeti-aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash nazariy asos hisoblanadi. Bu kursning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Aqli zaif bolaning tarbiyasida korreksion pedagogikaning ahamiyatini ochib berish;
- Aqli zaif bolalar nuqsoni aniqlash va bartaraf etish hamda ularni psixik rivojlanishi haqidagi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan bilimlar bilan talabalarni qurollantirish;
- Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalar hayotini tashkil etish va ularga bilim berish yexnika va metodlari bilan talabalarni tanishtirib boorish.

Bu kursda assosiy maqsad aqli zaif bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishga qaratilgan bo'lib, xuddi shu bo'limdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy kontingenti hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya oligofrenopedagogikasi degan alohida fan ajratilgani va uning predmet sifatida o'rganilishiga sabab shuki, maktabgacha yosh har bir bolaning, shuningdek, nuqsonli bolaning ham rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu fikrga aniqlik kiritish uchun bolalar Yoshi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bolalarning yoshi uch davrga bo'linadi :

1-davr. Go'daklik davri- tug'lgandan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

2-davr. Ilk bolalik davri- 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

3-davr. Maktabgacha davr- 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kiradi.

Maktabgacha davrda boalning ruhiy, jismoniy va aqliy faoliyatida jiddiy o'zgarishlar kuzatiladi. Agarda bu davrda bola rivojlanishiga yaxshi ahamiyat berilmasa yoki uning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan yo'llardan yetarlicha foydalanilmasa, natijada kelib chiqqan qiyinchiliklarni bartaraf qilish juda qiyin kechadi. Maktabgacha tarbiya nazariyasining shakllanishida rus olimlari: E.A.Arkin, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev kabi pedagoglar muhim rol o'ynaganlar. Ularning ko'rsatishlaricha, bolalarning rivojlanishida o'qitish va tarbiyalash hal qiluvchi omildir.



*Aqli zaiflikning sabablari:*

1. Homila davrida turli infeksiya, intoksikasiya va jarohatlar;
2. Tug'ilish davrida jarohat va asfiksiya;
3. Chaqoloqning dastlabki davrida turli xil salbiy ta'sir etuvchi yuqumli intoksikasiya, ovqatlanishning buzilishi va boahqalar;
4. Turli yo'l bilan avloddan avlodga o'tadigan gen, xromasoma va kasalliklar.

Oligofrenopedagogika fanining markazida muhim rol o'ynovchi nuqsonning o'zi emas, balki uning oqibatida yuzaga keluvchi ruhiy holatdir. Shuningdek, aqli zaif deb bu holatning turg'unligini ham tushunamiz. Ayni shu mezonning bor yoki yo'qligiga qarab aqliy qoloqlikning uning boshqa turlaridan farqlashimiz lozim. Aqliy qoloqlikning asosiy belgilari:

- a. Bosh miyada organik buzilishning mavjudligi;
- b. Bilish faoliyatining chuqur, umumiy buzilganligi;
- c. Bilish faoliyatlari buzilganligining turg'un xarakterdaligi;

Aqliy zaif bolalar guruhiga quyidagi bolalar kirmaydi:

1. Aqli rivojlanmaganlik, bosh miyaning organik buzilishlari bilan bog'liq bo'lmagan pedagogik qarovsizliklar;
2. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar;
3. Chuqur nuutq kamchiliklari bo'lgan bolalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/oligofrenopedagogikaning-umumiy-masalalari-1>
2. <https://fayllar.org/oligofrenopedagogika-predmeti-maqsadi-va-vazifalari-oligofreno.html>
3. <https://fayllar.org/1-maxsuspedagogikafaniningpredmetivamaqsadivazifalari-maxsusps.html?page=18>
4. Maxsus pedagogika. Oligofrenopedagogika. P.M.Po'latova. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2005.